

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**SEYTOVA LEYLI PULATOVNA**

**MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING**  
**IJTIMOIIY-EKOLOGIK JIHATLARI**

**08.00.12 – Mintaqa iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc)**

**Content of the Doctoral (DSc) dissertation abstract**

**Seitova Leyli Pulatovna**

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning ijtimoiy-ekologik jihatlarini ..... 3

**Сеитова Лейли Пулатовна**

Социально-экологические аспекты устойчивого развития экономики региона ..... 41

**Seitova Leyli Pulatovna**

Socio-ecological aspects of sustainable development of the regional economy ..... 83

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 88

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**SEYTOVA LEYLI PULATOVNA**

**MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING**  
**IJTIMOYIY-EKOLOGIK JIHLTLARI**

**08.00.12 – Mintaqa iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.DSc/Iqt223 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Kalonov Muxiddin Baxriddinovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Aimbetov Nagmet Kallievich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ruzmetov Baxtiyar**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Egamberdiev Farmonkul Tursunkulovich**  
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.07.2022.I.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51, info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2026-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**Sh.E. Sindarov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**J.S. Fayzullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**T.S. Qo'chqorov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyoti sharoitida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning ijtimoiy-ekologik jihatlari hududlarda aholi farovonligini oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini ta'minlash va ekotizim barqarorligini saqlash orqali iqtisodiy o'sishni sifat jihatdan yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi. Ijtimoiy infratuzilma rivoji, aholi bandligi va daromadlarining izchil o'sishi ekologik xavfsizlik talablari bilan uyg'unlashtirilganda hududiy rivojlanish modeli uzoq muddatli natijadorlikka erishadi. Xususan, ekologik me'yorlar asosida rejalashtirilgan urbanizatsiya, chiqindilarni qayta ishlash, yashil energetika infratuzilmalarining kengayishi hamda aholi salomatligini himoya qilish mexanizmlarining kuchayishi hudud iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, "barqaror rivojlanish bo'yicha faol choralar ko'rilmasa, iqlim o'zgarishi 2050-yilga borib global yalpi ichki mahsulotni 3,3 foizga qisqartirishi mumkin. "Yashil infratuzilma"ga global investitsiyalar 2030-yilga borib 23 trillion dollarni tashkil etishi kutilmoqda, bu esa barqaror rivojlanishning iqtisodiy o'sish uchun muhimligini ta'kidlaydi"<sup>1</sup>. Bundan ko'rinadiki, ijtimoiy-ekologik omillar uyg'unligi mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror va inklyuziv rivojlanishining poydevorini tashkil etadi.

Jahonda mintaqalar barqaror rivojlanishning yangi modellarini, tengsizlik va qashshoqlik kabi global ekologik tahdidlar va ijtimoiy muammolarni hisobga oladigan yangi mexanizmlarni yaratish zaruratiga duch kelmoqda. Infratuzilma yetarlicha rivojlanmagan va urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan hududlarda tabiiy resurslarga bosim kuchaymoqda, bu esa ijtimoiy farovonlikka zarar yetkazmasdan ekologik barqarorlikni ta'minlay oladigan strategiyalarni ishlab chiqishni talab qilmoqda. Shunday qilib, barqaror rivojlanishning yangi ijtimoiy-ekologik modellarini ishlab chiqish barcha mamlakatlar uchun, ularning iqtisodiy darajasidan qat'iy nazar, strategik ahamiyatga ega bo'lib, mintaqaviy sharoitlarga moslashtirilgan innovatsion yechimlarni taqozo etadi.

O'zbekistonda mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning ijtimoiy-ekologik yo'nalishlari doirasida aholi farovonligini oshirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini oshirish, hududlarda ekologik monitoring va atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlarini kengaytirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda ichimlik suvi va sanitariya xizmatlarini yaxshilash bo'yicha davlat dasturlari amalga tatbiq etildi. Shu bilan birga, 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni ta'minlovchi hududiy strategik rejalashtirish mexanizmlari joriy qilindi. Xalqaro hisobotlarda ta'kidlanganidek, "O'zbekistonda ekologik siyosat va ijtimoiy islohotlarni integratsiyalash iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlashda muhim drayver sifatida e'tirof etilmoqda"<sup>2</sup>. Mamlakat mintaqalarining barqaror rivojlanish salohiyatini oshirishga qaratilgan davlat siyosati asosini tashkil etuvchi ijtimoiy va ekologik ustuvorliklar uyg'unligini ta'minlash masalalari tadqiqiga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar dolzarb hisoblanadi.

<sup>1</sup>Jahon banki, BMTTD, YUNEP, Yevropa atrof-muhit agentligi (EEA).

<sup>2</sup> UNDP Uzbekistan, 2023, Sustainable Development Cooperation Framework.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-fevraldagi PF-223-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “Atrof-muhitni muhofaza qilish va “yashil iqtisodiyot” yili” Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 20-dekabrda PF-223-son “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta‘minlashning yangi tizimini joriy etish hamda mahalliy hokimiyat organlarining ushbu yo‘nalishdagi rolini va mas‘uliyatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 10-fevralda PF-21-son “Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlarini yanada takomillashtirish hamda soliq siyosati va soliq boshqaruvini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 21-yanvarda PF-54-son “Respublika hududlarida tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 23-oktabrda PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasining 2020-2030-yillarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 4-oktabrda PQ-4477-son “O‘zbekiston Respublikasining 2019-2030-yillarda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2018-yil 23-noyabrda PQ-4027-son “Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik vaziyatni yaxshilash va Orolbo‘yi mintaqasining barqaror rivojlanishini ta‘minlash bo‘yicha hududiy ijro hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda ushbu soha bilan bog‘liq boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni hal etishda ushbu dissertatsion tadqiqot ma‘lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining “I. Demokratik davlat va huquqiy jamiyat ma‘naviy-axloqiy va moddiy-ma‘naviy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mamlakat va uning mintaqalari iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish masalalari, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarning o‘zaro bog‘liqligi, mintaqaviy rivojlanishning strategik maqsadlarini shakllantirish, globallashtirish sharoitida mamlakatning raqobatli ustunliklarini aniqlash, barqaror rivojlanish indikatorlarini o‘lchash metodologiyasi, integratsiya jarayonlarining mintaqalar ixtisoslashuviga ta‘siri bo‘yicha ilmiy izlanishlar Capello R., Fratesi U., Cochrane W., Poot J., Chandler A.D., Porter M., Braczyk H., Cooke P., Kresl P.K., Singh B., Lever W.F., O.Solvell, Ch.Ketels va boshqa xorijlik olimlar tomonidan olib borilgan<sup>3</sup>.

Yaqin xorijlik olimlardan Kvint V., Bobilev S., V.Vidyapin V., Stepanov M., Zubarevich N., Granberg A., Yevstigneev R., Gutman G.V., Kovalenko Ye.S.,

---

<sup>3</sup> c.28., Jr. Strategy and Structure. M.I.T. Press, Cambridge, Mass., 1962., Porter M. Location, clusters and the new microeconomics of scpetition. Journal of Business Economics,1999., Braczyk H, Cooke P, Heidenreich M. Regional Innovation Systems. UGL Press, London, 1998., Kresl P.K., Singh B. Competitiveness and the Urban Economy // Urban Studies. 1999. Vol. 36. № 5-6. ,Lever W.F. Competitive Cities in Europe // Urban Studies. 1999. Vol. 36., Солвелл О. (2008). Кластеры. Баланс эволюционных и конструктивных сил. Издательство Ivory Tower, Стокгольм, Швеция. 138 стр. URL: <https://irp-cdn.multiscreensite.com/bcb8bbe3/files/uploaded/redbook.pdf>; Кетелс Ч., Линдквист Г. и Солвелл О. (2012), Укрепление кластеров и конкурентоспособности в Европе. Роль кластерных организаций. Кластерная обсерватория. Центр стратегии и конкурентоспособности. Октябрь 2012. 50 с. , Cochrane W., Poot J. Demand-Driven Theories and Models of Regional Growth//Hand book of Regional Science. July 2013.P.259-276; Capello R., Fratesi U. Modelling Regional Growth: An Advanced MASST Model // Spatial Economic Analysis, Vol. 7, No. 3, September 2012. P.293-318.

Kuznetsova O., Leksin V.N., Morozova T.G., Chernishev A., Pchelintsev O., Faxrutdinov R. va boshqalarning ilmiy ishlarida mintaqalarning resurs salohiyatidan oqilona foydalanish asosida ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish asoslari ochib berilgan, mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish ekologik muhitning cheklanganligi bilan o‘zaro bog‘liqligiga uslubiy yondashuvlar tadqiq etilgan, mintaqalarning takror ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish masalalari ko‘rib chiqilgan, iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tarkibi o‘zgarish qonuniyatlari va boshqa masalalar aniqlangan<sup>4</sup>.

O‘zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida global iqlim o‘zgarishi, tashqi tahdidlar, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, ekologik xavfsizlik va xalqaro raqobatning kuchayishi sharoitida milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish muammolariga alohida e‘tibor qaratilgan. Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning metodologik jihatlari M.Abdusalomov, T.Axmedov, N.Aimbetov, Q.Bektemirov, T.Jumayev, B.Ro‘zmetov, F.Egamberdiyev, S.Zokirov, Q.Ubaydullayev, A.Qodirov, A.Mamatqulov, A.Sadikov, Z.Saipov, P.Ramonazarov, X.Saydaxmedov, O.Olimjonov, Sh.Nazarov, A.Nizamov va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan<sup>5</sup>. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlarda mintaqaviy

<sup>4</sup>В Квинт. Стратегиялаш назарияси ва амалиёти.Т.: TASVIR.2018-45 б.; Бобылев С.Н., Зубаревич Н.В. Индикаторы устойчивого развития. Москва, Макс Пресс, 2008, Гранберг.А. Основы региональной экономики. М.: ГУВШЕ, 2000, с.589., Кещян В., Чернышев А. Государственная поддержка социально-экономического развития депрессивных регионов в зарубежных странах. М.: Региональная экономика и теория.2006, №1, ВидяпинВ.И., СтепановМ.В. Региональная экономика: Учебник / Под ред. В.И.Видяпинаи М.В.Степанова. М.: ИНФРА-М, 2009. – 666с.; ГутманГ.В. и др.Управлениерегиональнойэкономикой.М.:Финансы и статистика. 2002. – 175 с.; Евстигнеев Р.Н., Евстигнеева Л.П. Глобализация и российские регионы // Проблемы теории и практики управления, 2003. – №1. – С. 33. Зубаревич Н.В. Стратегия пространственного развития: приоритеты и инструменты. Вопросы экономики, №1, 2019 г. – С. 135-145; Коваленко Е.С и др. Региональная экономика и управление: Учебное пособие, 2-е изд., перераб. и доп. – СПб.: Питер, 2008. – 151 с.; Кузнецова О.В. Экономическое развитие регионов: Теоретические и практические аспекты государственного регулирования. Изд. 6-е. – М.:ЛЕНАНД, 2015. – 304 с.; Лексин В.Н. Методы и практика системного регулирования региональной и хозяйственного развития. М.: УРСС. 2002; Морозова Т.Г. Государственное регулирование экономики. Под ред. Т.Г. Морозовой. М.: ЮНИТИ. 2001 – 255 с.

<sup>5</sup>Абдусаломов М. О целях и методологических основах региональной политики. Научно-исследовательский центр “Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана” при ТГЭУ. – Ташкент, 2015 г.; Ахмедов Т.М. Актуальность региональной политики в Республике Узбекистан. Т.: Экономическое обозрение.2005, №1. с.30., Aimbetov N.Q. Murakkab ekologik sharoitida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni modellashtirish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida). Iqtisod fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Т.: TDIU. 2000.- 38 . Bektemirov K.K.Обеспечение развития региона в условиях экологической напряженности (на примере Республики Каракалпакстан). Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Т.: НУУз им.М Улугбека.2008, с.37., Jumayev T.J. Ekologiya iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Monografiya. Т.: «IQTISODIYOT» 2014y. 233b. Ubaydullayev K. Orolbo‘yi ekologik sharoitida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni modellashtirish va samaradorligini oshirish yo‘llari. Iqtisod fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Т.: O‘zbekiston bozor isloxoatlari ilmiy tadqiqot instituti. 2005.– 46 б; Mamatkulov A.V. The role of free economic zones in attracting foreign direct investment through small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. “Economic development and liberalization issues of implementation the five priority areas of Uzbekistan’s development strategy”. – Tashkent, 2018.; Назаров Ш.Х. Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов. – Ташкент: IFMR, 2014. – 212 с.; Низамов А.Б. Совершенствование системы управления региональной экономикой в условиях устойчивого экономического роста. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Ташкент, 2018г.– 45с.; Олимжонов О.О. Вопросы повышения конкурентоспособности сельских районов. Агрэкономика, 2017, №1. – С. 7-12; Рузметов Б. Региональная экономика: опыт, проблемы, эффективность комплексного развития. – Ташкент: Фан, 2002. – 220 с.; Садыков А.М. Новая стратегия развития Узбекистана: формирование, приоритеты, реализация. Монография. – Ташкент, 2019. – 536 с.; Эгамбердиев Ф.Т. Иктисодиёт назарияси, ўқув қўлланма. – Т.:Иктисод-молия нашриёти, 2014 й.; Кадыров А.М. и др. Региональная экономика.- Т.:LESSONPRESS, 2018.- 239 с.; Рамоназаров П. Худудларни иктисодий-экологик бошқаришни самарадорлигини ошириш. Монография. Фарғона. Al- Ferganus/ 2022. 170б.; Зокиров С.С. Инструменты государственного регулирования комплексного развития регионов Узбекистана. Материалы VI Форума экономистов. Т.II. Ташкент: IFMR, 2015.– С.94-101;СайдахмедовХ.М. Развитие регионов Узбекистана. Информационно-аналитический бюллетень «Экономика Узбекистана» за 2017 год. ЦЭИ, 2018г.; Саипов З. С и др. Процесс декорбанизации в рамках “зеленой экономики” .Т.: Ж.Рынок,деньги и кредит., № 7-8. 2023, 54с.

rivojlanishni tartibga solish transformatsiyasini hisobga olgan holda barqarorlikning ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining o‘zaro bog‘liqligi masalalari to‘liq ko‘rib chiqilmagan. Ushbu holat dissertatsiya ishining dolzarbligini belgilab beradi.

**Dissertatsiya mavzusining tadqiqot olib borilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FZ-5421033210 - “Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimini transformatsiyalashning metodologik asoslari” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ekologik cheklovlarni hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi hududlari iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-metodologik taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ekologik cheklovlar sharoitida mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning nazariy asoslarini tadqiq etish;

mintaqa iqtisodiyotini strategik boshqarish doirasida barqaror rivojlanishning institutsional-tadrijiy konsepsiyalarini tadqiq etish;

atrof-muhitning ifloslanishidan ko‘rilgan zararni baholash bo‘yicha uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish;

mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishni baholash monitoringining ijtimoiy-ekologik va iqtisodiy indikatorlari tizimini shakllantirishga uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish;

hududlarning innovatsion transformatsiyasini hisobga olgan holda hududlarni barqaror rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatlarini baholash usullarini ishlab chiqish;

hududlarni rivojlantirishni tartibga solish mexanizmini takomillashtirishni hisobga olgan holda mintaqalarni ijtimoiy-ekologik va iqtisodiy rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

atrof-muhit holatining o‘zgarishini hisobga olgan holda ijtimoiy xarajatlarni shakllantirish xususiyatlarini aniqlash, tahlil qilish;

mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy shart-sharoitlar hamda ekologik va ijtimoiy omillarni aniqlash;

suv resurslari cheklangan sharoitda mintaqa qishloq xo‘jaligining barqaror o‘sish strategiyasini asoslash;

Quyiy Amudaryo iqtisodiy rayoni hududiy rivojlanishining differentsiatsiyasi va asosiy ekologik-iqtisodiy xususiyatlarni tahlil qilish;

mintaqaviy ekologik omillarni va suv resurslari cheklanganini hisobga olgan holda ekonometrik modellardan foydalanish asosida Quyiy Amudaryo iqtisodiy rayoni agrar sektorini rivojlantirish prognozini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekiston Respublikasi mintaqalari hamda Quyiy Amudaryo iqtisodiy rayoni tanlangan.

**Tadqiqot predmeti** mintaqaning barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-ekologik va iqtisodiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, dialektik tadqiqot, induksiya va deduksiya, ekonometrik modellashtirish (ARIMA), korrelyatsion va regression tahlil, maqsadli rivojlanish, monografik kuzatuv, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, ekspert baholash, iqtisodiy statistika, kartalashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

mintaqadagi yetakchi oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasalari huzurida Ekologik innovatsiyalarni joriy etish markazi hamda fazoviy-geografik yondashuvlar (GIS-texnologiyalar)ga asoslangan “mintaqaviy laboratoriya”ni o‘z tarkibiga oluvchi rivojlantirish institutlarini tashkil qilish orqali monitoring tizimi va ekologik audit vositasida mintaqaning barqaror rivojlanishini tizimli qo‘llab-quvvatlash taklifi asoslangan;

ma'muriy tumanlar kesimida ekologik vaziyat va yerlarni muhofaza qilish ekologik vaziyatli zonalarining ahamiyatini hisobga oluvchi “eng keskin” (III zona,  $1,6 \leq K_{zek} \leq 2,0$ ), “murakkab” (II zona,  $1,2 \leq K_{zmur} \leq 1,5$ ) va mo‘tadil (I zona,  $0,1 \leq K_{zmo't} \leq 1,1$ ) koeffitsiyentlar bo‘yicha tabaqalashtirish orqali takomillashtirilgan;

mintaqa agrar sektorining raqobatli ustunliklari tavsiflash omillarni atrof-muhit va yer-suv resurslari sifatini baholash imkonini beradigan resurs yo‘nalishi ( $RY = 0,35$ ), mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladigan tashkilotchilik, ilmiy va texnologik omillar majmuasini qamrab oladigan operatsion yo‘nalish ( $OY = 0,42$ ), resurs bazasi, ekologik hamda tashkilotchilik-iqtisodiy xususiyatlarni optimal uyg‘unlashtirishga qaratilgan rivojlantirish dasturlarini o‘z ichiga oladigan strategik yo‘nalish ( $SY = 0,23$ ) guruhlarini o‘rtasidagi maqbul nisbatni aniqlash asosida takomillashtirilgan;

Quyida Amudaryo iqtisodiy rayonida mintaqalar raqobatbardoshligi o‘shishiga to‘sqinlik qiluvchi ekologik muhitdagi o‘zgarishlar va iqlim o‘zgarishining ta'sirini ifodalovchi ekonometrik modeli asosida agrar sektor rivojlanishining 2030-yilga qadar ssenariyli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan;

uslubiy yondashuvga ko‘ra “mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni hududning tabiiy-iqtisodiy resurs salohiyatidan oqilona foydalangan holda iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini uzoq muddat davomida saqlash, aholi farovonligini oshirish va atrof-muhitga zararni minimallashtirishni ta'minlaydigan, ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy omillar o‘rtasidagi muvozanatga asoslangan, inklyuziv va innovatsion rivojlanish jarayoni nuqtai nazaridan takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:**

atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun zararni baholash bo‘yicha uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan;

tadqiqotning kartografik usullaridan foydalanish bo‘yicha takliflar tayyorlangan; ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy va innovatsion jarayonlarni birlashtiruvchi barqaror hududiy rivojlanish indikatorlari tizimini shakllantirish bo‘yicha takliflar asoslangan;

hududlarning innovatsion transformatsiyasini hisobga olgan holda mintaqalarni barqaror rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatlarini baholash usullari ishlab chiqilgan;

aholi bandligi, real daromadlarini oshirish va kambag'allikni qisqartirish, shuningdek, mahalliy tashabbuslar va resurslarni safarbar etish asosida hududlarni barqaror rivojlantirish (tuman darajasida) modeli ishlab chiqilgan;

mintaqaning iqtisodiy rivojlanishini prognozlash jarayoniga ekologik va ijtimoiy omillarni integratsiyalash bo'yicha takliflar tavsiya etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya tadqiqoti davomida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi qo'llanilgan uslubiy yondashuvlarning tadqiqot maqsadi va vazifalariga mosligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, Jahon banki, UNDP, UNEP, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining statistik ma'lumotlaridan olinganligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ekologik cheklovlarni hisobga olgan holda respublika mintaqalarini barqaror rivojlanish yo'liga o'tkazish bilan bog'liq iqtisodiy tadqiqotlarning nazariy-metodologik va uslubiy apparatini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarni amalga oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tavsiyalar mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning institutsional muhitini shakllantirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishga hamda "Mintaqa iqtisodiyoti", "Iqtisodiy rivojlanish va mahalliy salohiyat", "Yashil iqtisodiyot" fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi.** Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning ijtimoiy-ekologik jihatlariga oid ilmiy tadqiqotlar natijalar asosida:

mintaqadagi yetakchi oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasalari huzurida Ekologik innovatsiyalarni joriy etish markazi hamda fazoviy-geografik yondashuvlar (GIS-texnologiyalar)ga asoslangan "mintaqaviy laboratoriya"ni o'z tarkibiga oluvchi rivojlantirish institutlarini tashkil qilish orqali monitoring tizimi va ekologik audit vositasida mintaqaning barqaror rivojlanishini tizimli qo'llab-quvvatlash taklifi Ekologiya va atrof muhitni tozalash masalalari qo'mitasi tomonidan inobatga olinib, ilmiy izlanishlar natijalari O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi loyihasini tayyorlashda, xususan, fuqarolik-huquqiy, ekologik va iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 49-moddasi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasining 2024-yil 3-dekabrda 04/10-10-3-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish bilan bog'liq ijtimoiy-ekologik va iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishning qonunchilik va me'yoriy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish imkoni yaratilgan;

ma'muriy tumanlar kesimida ekologik vaziyat va yerlarni muhofaza qilish ekologik vaziyatli zonalarining ahamiyatini hisobga oluvchi "eng keskin" (III zona,  $1,6 \leq K_{zek} \leq 2,0$ ), "murakkab" (II zona,  $1,2 \leq K_{zmur} \leq 1,5$ ) va mo'tadil (I zona,  $0,1 \leq K_{zmo't} \leq 1,1$ ) koeffitsiyentlar bo'yicha tabaqalashtirish orqali

takomillashtirishga oid takliflar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati ekspertlar guruhi tarkibida ishtirok etishi doirasida, Prezidentning 5202 va 4889-sonli qarori ijrosini amaliyotda nazorat qilish bo‘yicha parlament nazorati jarayonida, Qoraqalpog‘istonning Orolbo‘yi hududini rivojlantirishga oid masalalar doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasining 2024-yil 3-dekabrda 04/10-10-3-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ma‘muriy tumanlar kesimida ekologik vaziyat va yerlarni muhofaza qilishni takomillashtirish imkoni yaratilgan;

mintaqa agrar sektorining raqobatli ustunliklari tavsiflash omillarni atrof-muhit va yer-suv resurslari sifatini baholash imkonini beradigan resurs yo‘nalishi ( $RY = 0,35$ ), mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladigan tashkilotchilik, ilmiy va texnologik omillar majmuasini qamrab oladigan operatsion yo‘nalish ( $OY = 0,42$ ), resurs bazasi, ekologik hamda tashkilotchilik-iqtisodiy xususiyatlarni optimal uyg‘unlashtirishga qaratilgan rivojlantirish dasturlarini o‘z ichiga oladigan strategik yo‘nalish ( $SY = 0,23$ ) guruhlarini o‘rtasidagi maqbul nisbatni aniqlash asosida takomillashtirish bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo‘mitasi tomonidan amaliy faoliyatda qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo‘mitasining 2024-yil 14-dekabrda 04/2-13-33-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mintaqa agrar sektorining raqobatli ustunliklarini tavsiflash maqsadida, omillarni quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha guruhlash zarurligi: atrof-muhit va yer-suv resurslari sifatini baholash imkonini beradigan resurs yo‘nalishi; mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladigan tashkilotchilik, ilmiy va texnologik omillar majmuasini qamrab oladigan operatsion yo‘nalish; resurs bazasi, ekologik hamda tashkilotchilik-iqtisodiy xususiyatlarni optimal uyg‘unlashtirishga qaratilgan rivojlantirish dasturlarini o‘z ichiga oladigan strategik yo‘nalish asoslab berilgan;

Quyida Amudaryo iqtisodiy rayonida mintaqalar raqobatbardoshligi o‘zgarishiga ta‘sir qiluvchi ekologik muhitdagi o‘zgarishlar va iqlim o‘zgarishining ta‘sirini ifodalovchi ekonometrik modeli asosida agrar sektor rivojlanishining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan ssenariyli prognoz ko‘rsatkichlari Qoraqalpog‘iston Respublikasida fuqarolik-huquqiy, ekologik va iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy me‘yorlar ustida ish olib borish jarayonida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati ekspertlar guruhi tarkibida ishtirok etishi doirasida, Prezidentning 5202 va 4889-sonli qarori ijrosini amaliyotda nazorat qilish bo‘yicha parlament nazorati jarayonida, Qoraqalpog‘istonning Orolbo‘yi hududini rivojlantirishga oid masalalarda inobatga olingan (Qoraqalpog‘iston Vazirlar Kengashining 2024-yil 11-dekabrda 02-09/9-12/965-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlar raqobatbardoshligining o‘zgarishini cheklovchi ekologik muhit ta‘sirini inobatga olgan holda, O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish bilan bog‘liq ijtimoiy-ekologik va iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha qonunchilik va me‘yoriy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishga xizmat qilgan;

uslubiy yondashuvga ko‘ra “mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi” tushunchasining iqtisodiy mazmunini hududning tabiiy-iqtisodiy resurs salohiyatidan

oqilona foydalangan holda iqtisodiy o'sish sur'atlarini uzoq muddat davomida saqlash, aholi farovonligini oshirish va atrof-muhitga zararni minimallashtirishni ta'minlaydigan, ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy omillar o'rtasidagi muvozanatga asoslangan, inklyuziv va innovatsion rivojlanish jarayoni nuqtai nazaridan takomillashtirish bilan bog'liq nazariy va uslubiy ishlanmalardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 18 avgustdagi 356-son buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy omillar o'rtasidagi muvozanatga asoslangan, inklyuziv va innovatsion rivojlanish jarayoni nuqtai nazaridan takomillashtirilgan "mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi" tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotning eng muhim natijalari bo'yicha 4 ta xalqaro va 19 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar tayyorlangan va muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 44 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan, 3 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta maqola, shundan 10 tasi respublika va 8 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 222 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Global iqlim o‘zgarishi sharoitida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ijtimoiy-ekologik cheklovlar sharoitida mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning nazariy asoslari bayon etilgan, nomarkazlashtirish sharoitida mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik tizimlari tartibga solish obykti sifatida ko‘rib chiqilgan, mintaqa iqtisodiyotini strategik boshqarish doirasida barqaror rivojlanishning institutsional-tadrijiy konsepsiyalari tadqiq etilgan.

Dissertatsiyada mintaqalarning iqtisodiy rivojlanish nazariyalari transformatsiyasining shart-sharoitlari boshqaruvning nomarkazlashuvi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ham tashqi muhit, ham ichki ziddiyatlaridan iborat ekanligi ko‘rsatilgan. Muallifning fikricha, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik rivojlanishini boshqarishning yangi mexanizmini shakllantirishning shart-sharoitlari sifatida institutsional, resurs, tashkiliy-iqtisodiy, ekologik, moliyaviy va ijtimoiy o‘zgarishlar eng katta qiziqish uyg‘otadi.

Dissertatsiya ishida mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik rivojlantirish nazariyalarining transformatsiyasini tahlil qilish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

mintaqani rivojlantirishni boshqarish mexanizmining asosiy tarkibiy qismlari, ayniqsa strategik rejalashtirish takomillashtirilishi lozim;

mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga davlat ta’sirining zamonaviy modeli raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar diffuziyasi, rivojlanish institutlari va mintaqalarning barqaror rivojlanish mexanizmlarini o‘zgartirishga ta’sir ko‘rsatadigan boshqa parametrlardan foydalanishni taqozo etadi.

Muallifning fikricha, global iqlim o‘zgarishi sharoitida barqaror rivojlanish konsepsiyasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu ijtimoiy-ekologik muammolarning kuchayishi, masalan, iqlim o‘zgarishi, atrof-muhitning yomonlashuvi, tabiiy resurslarning kamayishi, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi va boshqalar bilan bog‘liq.<sup>6</sup> Turli ilmiy maktablarning tadqiqotlariga ko‘ra, agar hozirgi va kelajak avlodlarga o‘z ehtiyojlarini to‘liq qondirish imkoniyatini bersa, rivojlanish barqaror uzoq muddatli xususiyatga ega bo‘ladi (1-jadvalga qarang).

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi uzoq evolyutsion yo‘lni bosib o‘tdi va, bizning fikrimizcha, uni uch bosqichga bo‘lish mumkin: boshlang‘ich bosqich (1968-1972), atrof-muhitning ifloslanishi, aholining haddan tashqari ko‘payishi va

<sup>6</sup>Climate change adaptation-planning, research and practice platform (we ADAPT). URL: <https://www.weadapt.org/>; Climate Change Knowledge Portal (CCKP) of the World Bank Group. URL: <https://climateknowledgeportal.worldbank.org/>; United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC), official country data portal on greenhouse gas emissions. URL:<https://di.unfccc.int/detailed> data by party; World Meteorological Organization. Catalogue for Climate Data. URL :<https://climatedata-catalogue.wmo.int/>

tabiiy resurslarning cheklanganligi dolzarb masalalarga aylandi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning mavjud tendensiyalarini saqlab qolgan holda yaqinlashib kelayotgan global ekologik inqirozning umumiy g'oyasiga olib keldi; industrial bosqich (1972-1992), institutsional nazariyalar konsepsiyalari hamda ekologiya va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasida o'zaro hamkorlikning xalqaro institutlarini shakllantirish; barqaror rivojlanish bosqichi (1992-yildan hozirgi kungacha), iqtisodiy o'sish va "kelajakning postindustrial jamiyati" fikriga qarshi "Sustainable development" konsepsiyalari rivojlantirildi<sup>7</sup>.

### 1-jadval<sup>8</sup>

#### Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga metodologik yondashuvlar<sup>8</sup>

t/r	Nomi	Mazmuni
1	"Barqaror rivojlanish konsepsiyasi", G.X. Bruntland <sup>9</sup>	Barqaror rivojlanishni..."kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini cheklamagan holda hozirgi avlod ehtiyojlarini qondiradigan rivojlanish" deb ta'riflaydi. U uchta asosiy: iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik tarkibiy qism o'rtasidagi muvozanatni ta'kidlaydi.
2	"Postindustrial jamiyat konsepsiyasi", D. Bell <sup>10</sup>	Industrial jamiyatdan bilim asosiy resursga aylanadigan axborot jamiyatiga o'tishni tavsiflaydi. Ekologik jihatdan yanada toza va adolatli jamiyatga o'tish muhimligini ta'kidlaydi.
3	"Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi," Pen-Chi Chiang va b. <sup>11</sup>	Barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan iqtisodiy tizimga o'tishni taklif qiladi. U resurs samaradorligi, atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan.
4	"Inson taraqqiyoti konsepsiyasi", A. Sen <sup>12</sup>	Odamlarning o'z ehtiyojlarini amalga oshirish va farovonlikka erishish imkoniyatlarini kengaytirish muhimligini ta'kidlaydi. YAIMga asoslangan an'anaviy rivojlanish choralarini tanqid qiladi va inson taraqqiyoti indeksidan foydalanishni taklif qiladi.
5	"Avlodlar o'rtasidagi adolat konsepsiyasi", X. Vittorio <sup>13</sup>	Hozirgi avlod tabiiy resurslardan foydalanishga va kelgusi avlodlarga tanazzulga uchragan atrof-muhitni qoldirishga haqli emasligini ta'kidlaydi.
6	"Tizimli yondashuv konsepsiyasi", Lvon Bertalanffy <sup>14</sup>	Barqaror rivojlanishni barcha elementlari o'zaro bog'liq va bir-biriga bog'liq bo'lgan yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqadi. Rivojlanish barqarorligiga ta'sir qiluvchi barcha omillarni hisobga olgan holda muammolarni hal qilishda kompleks yondashuvni talab qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, muallifning fikricha, hududiy tizimlarni barqaror rivojlantirishga erishish maqsadida boshqarishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

mintaqaviy salohiyatni takror ishlab chiqarish jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatlarning birligi;

<sup>7</sup> E. Gartner On the «Second Phase» of the Work of the Club of Rome. Scientific World. 1976. Vol. 20. № 4.

<sup>8</sup> Adabiy manbalarni tizimlashtirish asosida muallif tomonidan tuzilgan

<sup>9</sup> GroHarlemBruntland. Speech at the Nordic Conference on Environment and Development, 9 May 1987, in Stockholm, p. 4. In: Selected speeches on the Commission and its report by H.E. Mrs. Gro Harlem Bruntland, Prime Minister of Norway and Chairman of the World Commission on Environment and Development. URL: [https://idl-bnc-idrc.dspacedirect.org/bitstream/handle/10625/20579/WCED\\_v42\\_doc1-36.pdf](https://idl-bnc-idrc.dspacedirect.org/bitstream/handle/10625/20579/WCED_v42_doc1-36.pdf)

<sup>10</sup> D Bell. "The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting", 1973

<sup>11</sup> Pen-Chi Chiang, Hwong-wen Ma, LihChyi Wen, Chun-hsu Lin "Introduction to Green Science and Technology for Green Economy" ; XIV, 540, 28 October 2024

<sup>12</sup> А Сен. Развитие и свобода. М.: Новое издательства.204,42с.

<sup>13</sup> Хёсле Витторио "Справедливость в отношениях между поколениями" Актуальные проблемы Европы, no. 2, 2000, pp. 235-245.


<sup>14</sup> L von Bertalanffy "General System Theory: Foundations, Development, Applications". NewYork: UniverseBooks.

nomarkazlashtirish va vakolatlarni mahalliy boshqaruvning turli darajalariga berish sharoitida mintaqaviy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tartib-taomillarini asoslash va amalga oshirish (funksional tahlil usullaridan foydalanish asosida);

mahalliy hokimiyat organlarining mintaqa iqtisodiyotiga ta'sirini tartibga soluvchi boshqaruv qarorlarini qabul qilish davlat boshqaruvining yagona tizimiga integratsiyalashtirilishi lozim;

mintaqa real shart-sharoitlar va ekologik cheklovlar bilan belgilanadigan mintaqalarning ushbu vazifalarni hal etishga qo'shadigan oqilona hissasini hisobga olgan holda davlatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o'rta muddatli va uzoq muddatli vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'z strategiyasini shakllantirish;

mintaqa real shart-sharoitlar va ekologik cheklovlar bilan belgilanadigan mintaqalarning ushbu vazifalarni hal etishga qo'shadigan oqilona hissasini hisobga olgan holda davlatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o'rta muddatli va uzoq muddatli vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'z strategiyasini shakllantirish.



**1-rasm. Nomarkazlashtirish sharoitida barqaror mintaqaviy rivojlanishni tartibga solish vositalari va usullari iyerarxiyasi<sup>15</sup>**

Muallifning fikricha, hududiy rivojlanishni tartibga solish vositalari va usullarini to'g'ri tanlash iqtisodiy rivojlanish salohiyatini amalga oshirish uchun kuch va

<sup>15</sup> O'rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan

resurslarni jamlash va shu bilan bozor sharoitida mintaqalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi (1-rasm). Barqaror rivojlanishning umumiy strategiyasini ishlab chiqish jarayonida mintaqalarning roli va o'ri, funksiyalari aniqlanadi, doimiy o'zgaruvchan iqtisodiyot sharoitida mintaqani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilanadi, uni yangi institutsional muhitda amalga oshirishning iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy mexanizmlari asoslanadi.

Shu nuqtayi nazardan, muallif tomonidan uslubiy yondashuvga ko'ra "mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni hududning tabiiy-iqtisodiy resurs salohiyatidan oqilona foydalangan holda iqtisodiy o'sish sur'atlarini uzoq muddat davomida saqlash, aholi farovonligini oshirish va atrof-muhitga zararni minimallashtirishni ta'minlaydigan, ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy omillar o'rtasidagi muvozanatga asoslangan, inklyuziv va innovatsion rivojlanish jarayoni nuqtai nazaridan takomillashtirilgan.


Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi holati tendensiyalari va omilli jihatlarni qiyosiy tahlil qilish muallifga quyidagi muammolarni aniqlash imkonini berdi.

Hududlarning iqtisodiy salohiyati to'liq ishga solinmaganligi, ya'ni respublika dasturlarini ishlab chiqishda hududlarning o'ziga xos xususiyatlari yetarlicha hisobga olinmaganligi; agrar sektor ustunlik qilgan holda hududlar iqtisodiyotining mavjud tarkibi saqlab qolishi; to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini jalb qilish va hududlarning raqobatli ustunliklarini amalga oshirishda sezilarli mintaqaviy nomutanosibliklar; mahalliy byudjetlar shakllantirilishida mintaqaviy infratuzilma va innovatsion ekotizimni rivojlantirishni hamda ekologik muammolar va boshqa masalalarni hal etish imkoniyatlarini cheklaydigan darajada moliyaviy bazaning yetarli emasligi; resurslarning mavjudligi va bozor imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish o'rtasidagi nomutanosiblik, xalqaro va mintaqalararo iqtisodiy integratsiyaning yetarli darajada rivojlanmaganligi; mintaqaviy menejment (iqtisodiy qarorlar qabul qilish, tarmoq yondashuvi, strategik rejalashtirish usullaridan foydalanish va boshqalar) va marketingning (tarmoq marketingi imkoniyatlaridan foydalanish, hududlarning brend-imidjini shakllantirish va boshqalar) yetarli darajada rivojlanmaganligi; aholining farovonligi, oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy farovonligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yer-suv resurslari taqchilligining (miqdor va sifat jihatidan) mavjudligi; "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish (qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasi, 2030-yilga borib ularning ulushini 25 foizga yetkazish) orqali atrof-muhitga bo'lgan bosimni kamaytirish zarurati; alohida mintaqalar bo'yicha (Orolbo'yi misolida) ekologik keskinlikni kamaytirish bo'yicha maxsus dasturlar va chora-tadbirlar qabul qilish zarurati.

Dissertatsiyaning **"Ijtimoiy-ekologik jihatlarni hisobga olgan holda mintaqaning barqaror rivojlanishini baholashga uslubiy yondashuvlar"** deb nomlangan ikkinchi bobida xalqaro tashkilotlar tajribasini hisobga olgan holda mintaqalarning barqaror rivojlanishini baholashga uslubiy yondashuvlar va atrof-muhit ifloslanishidan ko'rilgan zararni baholash bo'yicha investitsion risklarni kamaytirish usullari tadqiq etilgan, hududlarning innovatsion transformatsiyasini hisobga olgan holda mintaqalar barqaror rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy va

ekologik jihatlarini baholashga uslubiy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Dissertatsiya ishida mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladigan omillarni aniqlash imkonini beruvchi tahlil amalga oshirilgan. Uslubiy yondashuvning asosini barqaror o'sishning turli jihatlarini aks ettiruvchi makroiqtisodiy (iqtisodiy o'sish, inflyatsiyani targetlash, investitsiya dasturlari, byudjet munosabatlari va boshqalar), institutsional (xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilgan qonunchilik normalari, hududlarni rivojlantirish institutlari, "yashil o'sish"ni qo'llab-quvvatlash va boshqalar) va davlatlararo (Orol dengizi muammolari, transchegaraviy suv resurslari, atrof-muhitga chiqindilar, maxsus jamg'armalar va boshqalar) omillar tashkil etdi (2-rasmga qarang).



**2-rasm. Hududlarni barqaror rivojlantirishning omilli tahliliga uslubiy yondashuv<sup>16</sup>**

<sup>16</sup> O'rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tadqiqotda quyidagi mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish zarurligi asoslab berildi:

ayrim mintaqalardagi (Orolbo‘yi) noqulay tabiiy iqlim sharoitlari;

yirik va noyob ishlab chiqarish quvvatlari bilan ajralib turadigan (Qo‘ng‘irot soda zavodi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, “UZ-Kor-Gas Chemical” qo‘shma korxonasi, “Qoraqalpoq sement” mas’uliyati cheklangan jamiyati va boshqalar), atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatishning xilma-xil turlari mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish obyektlarini hududlarda joylashtirish;

xo‘jalik yuritish obyektlarining cheklangan moliyaviy imkoniyatlari tufayli sanoat korxonalari, transport va boshqa ishlab chiqarish obyektlarining atrof-muhitga chiqaradigan tashlamalariga qarshi kurashish muammolarini hal etishning murakkabligi;


tog‘-tog‘oldi va cho‘l-yaylov zonalarining tabiiy landshaftini saqlab qolish hamda resurslaridan oqilona foydalanish;

atrof-muhitga antropogen yukning tegishli ravishda o‘ssishi bilan ayrim hududlarda (Navoiy-Qizilqum, Angren-Olmaliq va boshqa zonalar) ishlab chiqarishning yuqori darajada hududiy konsentratsiyalashuvi oqibatlarini yumshatish. Mavjud xalqaro uslubiyatlarni tizimlashtirish natijalari shuni ko‘rsatadiki, barqaror rivojlanish indikatorlarini ishlab chiqish va qo‘llash bir qator murakkabliklarga ega bo‘lib, ulardan biri zarur ma’lumotlarning yetishmasligidir. Ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, ayniqsa ko‘p sonli ko‘rsatkichlar uchun, katta vaqt va moliyaviy resurslarni talab qiladi.

Bundan tashqari, ko‘plab mamlakatlarda statistik tizimlar mavjud emas yoki to‘liq rivojlanmagan, bu esa ishonchli ma’lumotlar olishni qiyinlashtiradi. Natijada ko‘plab mamlakatlar barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lidagi taraqqiyotni baholash uchun eng mos ko‘rsatkichlarni tanlash va ulardan samarali foydalanish muammosiga duch kelmoqda. Muallifning fikricha, barqaror rivojlanishni baholashda ikkita asosiy yondashuv mavjud (3-rasmga qarang).

Birinchisi yondashuv o‘ziga xos ko‘rsatkichlar tizimi orqali barqarorlikning alohida jihatlarini batafsil o‘rganishga qaratilgan. Ikkinchi yondashuv ko‘plab ko‘rsatkichlardan olingan ma’lumotlarni birlashtiruvchi yig‘ma indeksni yaratish orqali barqarorlikning yaxlit manzarasini olish imkonini beradi. Shundan kelib chiqib, u yoki bu yondashuvni tanlash tadqiqot maqsadlari va ma’lumotlarning mavjudligiga bog‘liq.

Tahlil jarayonida dastlab barqaror rivojlanishni baholash uchun ko‘rsatkichlarni to‘rt guruhga: atrof-muhitga antropogen bosimni tavsiflovchi (ifloslantiruvchi moddalar emissiyasi, tabiiy resurslar iste’moli), tabiiy resurslar holatini aks ettiruvchi (havo va suv sifati, bioxilma-xillik), inson salomatligi va ijtimoiy farovonlikka ta’sirini baholovchi, shuningdek, javob choralarini tavsiflovchi (qonunchilik, ekologik texnologiyalarga investitsiyalar) ko‘rsatkichlarga ajratishni nazarda tutadigan IHTT metodologiyasi qo‘llanildi. Natijada keng doiradagi ekologik muammolarni qamrab olgan va atrof-muhit holatini hamda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini kompleks baholash imkonini beradigan 134 ta ko‘rsatkichdan iborat ro‘yxat shakllantirildi.



**3-rasm. Mintaqaning barqaror rivojlanishini ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatlarni hisobga olgan holda baholash<sup>17</sup>**

Biroq, ushbu metodologiyani muayyan tadqiqot sharoitlariga moslashtirishda zarur ma'lumotlarning yetishmasligi va milliy statistikaning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bir qator qiyinchiliklar yuzaga keldi. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan barqaror rivojlanish indikatorlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha guruhlanadi: xalqaro amaliyotda barqaror rivojlanish indikatorlarining ko'plab tizimlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega va aniq vazifalarni hal qilish uchun mo'ljallangan. BMT ekologik muammolarning keng doirasini qamrab oluvchi va atrof-muhit holatini turli darajalarda baholash imkonini beruvchi kompleks indikatorlar tizimini ishlab chiqdi.

<sup>17</sup> O'rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

## Atrof-muhit ifloslanishidan zararni hisoblash usullari

### Atmosfera havosi ifloslanishi

Taklif etilayotgan uslubiyot ifloslantiruvchi moddalarning atmosfera chiqarilishi natijasida atrof-muhitga yetkaziladigan zararni miqdoriy baholashga qaratilgan. U turli omillarni hisobga olgan holda kompleks yondashuvga asoslanadi: ifloslantiruvchi moddalarning turi va miqdori, tarqalish sharoitlari, hududning ekologik ahamiyati va chiqindilarni kamaytirish uchun iqtisodiy xarajatlar.

**Atmosfera havosining ifloslanishidan ko'rilgan zarar quyidagi formula yordamida aniqlanadi:**

$$Y = j * G * M * f * k \quad (1)$$

bu yerda: Y - zararning umumiy bahosi (so'm):

j - qiymati teng bo'lgan atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha tadbir xarajatlarni belgilovchi ko'paytuvchi;

Ayni paytda so'mning 1 dollarga nisbatan o'rtacha kursi 12 670,00 so'mni tashkil etmoqda.

J ko'paytuvchisi 1 shartli tonna ifloslantiruvchi modda chiqindilarini kamaytirish xarajatlari yig'indisini bildiradi. Shunday qilib,

$$j = 2,4 * 12 670,00.$$

G - nisbiy xavf ko'rsatkichi bo'lib, uning qiymati 1-jadvalga muvofiq tabaqalashtirilgan holda aniqlanadi;

M-ifloslantiruvchi modda tashlamalarining yig'indi massasi

$$M = m_i * A_i \quad (2)$$

bu yerda: m<sub>i</sub> - i-anig ingrediyeentning atmosfera chiqarib tashlanadigan fizik massasi, t/yil;

A<sub>i</sub> - alohida i - ingrediyeentning (kimyoviy birikma, aralashma) nisbiy agressivligi ko'rsatkichi, shart. t/t.

Turli toifadagi hududlar ustidagi atmosfera havosi ifloslanishining nisbiy xavfi G ko'rsatkichining qiymati va atmosfera chiqariladigan ba'zi moddalar uchun Ai kattaligi

f - zararli moddaning atmosferada tarqalish xususiyatini hisobga oluvchi kattalik, ko'paytuvchi;

k - muayyan hududning ekologik holatini hisobga oluvchi tuzatish koeffitsiyenti f (atmosfera aralashmalarining tarqalish xususiyatini hisobga oluvchi tuzatma) ko'navtuvchisida aniqlanadi.

1. Gazsimon aralashmalar va juda kichik cho'kish tezligiga ega bo'lgan (1 sm/sek dan kam) yengil mayda dispers zarrachalar uchun

$$f = f(1) = (100(M))/(100(M) + \varphi h) * x(4(M/c))/(1(M/c) + u) \quad (3)$$

bu yerda h - faol ifloslanish zonasining (IFZ) o'rtacha sathiga nisbatan manba og'zining geometrik balandligi;

φ - atmosferadagi otish mash'alasining issiqlik ko'tarilishiga tuzatma, quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\varphi = 1 + \Delta T / 75^{\circ}C \quad (4)$$

u - flyuger sathidagi shamol tezligi modulining o'rtacha yillik qiymati, m/s; u qiymati noma'lum bo'lgan hollarda u 3 m/s ga teng deb qabul qilinadi.

ΔT - manba (quvur) og'zidagi va atrofda atmosferadagi haroratlar farqining o'rtacha yillik qiymati, °C.

U= 3 m/s bo'lganda (3) formula bo'yicha hisoblangan f<sub>1</sub> ((1)) ning qiymati ba'zilar uchun ΔT va h ning qiymatlari 2-jadvalda keltirilgan.

**Agar u ≠ 3 m/s,**

u holda berilgan ΔT va h uchun 2-jadvalda keltirilgan qiymatni tuzatmaga ko'paytirish kerak

$$W = (4(M/c))/(1(M/c) + u), \quad (5)$$

2. 1 dan 20 sm/s gacha tezlikda cho'kadigan zarralar uchun

$$f = f_2 = ((1000(M))/(60(M) + \varphi h)) * x(4(M/c))/(1(M/c) + u) : (3)$$

ba'zi ΔT va h lar uchun u= 3 m/s bo'lganda (3) formula bo'yicha hisoblangan f<sub>2</sub> ning qiymatlari 3-jadvalda keltirilgan... **Agar u ≠ 3 m/s,**

2.2.2-jadvalda keltirilgan f<sub>2</sub> ((2)) ^0 qiymatni zarrachalar uchun W; tuzatmaga ko'paytirish lozim. 20 sm/s dan ortiq tezlik bilan cho'kayotganda h, φ ΔT va u qiymatlaridan qat'iy nazar **f=f<sub>3</sub>=10**

Funksiya qiymati:

$$f_{((1))}^0 = ((100(M))/(100(M) + \varphi h))$$

(suratda va funksiyalar:

$$f_{((2))}^0 = ((1000(M))/(60(M) + \varphi h)) / 1/2$$

ΔT (0S) va h (m) ning ba'zi qiymatlarida

### Suv havzalari ifloslanishi

Metodika suv havzasiga tashlanadigan turli xil ingredientlardan ko'rilgan zarar jamlashga asoslangan yiriklashtirilgan yondashuvdan foydalanadi.

**Suv havzalarining ifloslanishidan ko'rilgan zararni yiriklashtirilgan baholash bo'yicha aniqlash**

Muayyan ochiq suv havzasiga ifloslantiruvchi moddalarni tashlash manbasidan ko'rilgan zararining iqtisodiy bahosi Y (so'm/yil) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Y = j_1 * G_k * M * k \quad (6)$$

bu yerda, Y - zararni baholash (so'm/yil);

j<sub>1</sub> - son qiymati quyidagiga teng bo'lgan ko'paytuvchi

$$400 * 12 670,00 = 5068000 \text{ (so'm/ shart.t);}$$

Ayni paytda so'mning 1 dollarga nisbatan o'rtacha kursi 12 670,00 so'mni tashkil etmoqda.

j<sub>1</sub> ko'paytuvchi ochiq suv havzasiga 1 shartli kubometr ifloslangan oqimni kamaytirish uchun xarajatlar yig'indisini bildiradi.

Shunday qilib, **j<sub>1</sub>= 400\*12 670,00**

G<sub>k</sub> - turli suv xo'jaligi uchastkalari uchun differensial qiymatga ega bo'lgan o'zgarmas

M - ushbu manba tomonidan ma'lum bir suv havzasiga ingrediyeent (kimyoviy birikma, aralashma) ning yillik tashlanmasining keltirilgan massasi (shartli t/yil).

2. M kattalikning qiymati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$M = \sum_{i=1}^N A_i m_i \quad (7)$$

bu yerda,

i - tashlanayotgan ingrediyeent (kimyoviy birikma, aralashma) raqami:

N - baholanayotgan manba tomonidan tashlanayotgan ingrediyeent (kimyoviy birikma, aralashma) ning umumiy soni;

A<sub>i</sub> - i - moddani suv havzalariga tashlashning nisbiy xavfiligi ko'rsatkichi (shartli t/t);

m<sub>i</sub> - baholanayotgan manba tomonidan i-chi ingrediyeent (kimyoviy birikma, aralashma) ning yillik tashlanmasining umumiy massasi, t/yil;

k - muayyan hududning ekologik holatini hisobga oluvchi tuzatish koeffitsiyenti.

3. Agar manba tozalash darajasi bilan farq qiluvchi bir nechta toifadagi oqova suvlarni oqizib yuborsa, u holda quyidagi formula bo'yicha chiqariladigan barcha toifadagi oqova suvlar bilan birga suv havzasiga tashlanadigan i-chi ingrediyeentning (kimyoviy birikma, aralashma) yillik umumiy m<sub>i</sub> massasi kelib chiqadi: **m<sub>i</sub> = ∑(j = 1)<sup>k</sup> m<sub>j</sub> (8)** turdagi oqava suvlar bilan ushbu manbadan suv havzasiga i-moddaning yillik tushish massasi,

$$j = 1, 2, \dots, k.$$

Agar j-turdagi oqava suvlar suv havzasiga faqat baholanayotgan manbadan (boshqa manbalarning oqava suvlari bilan aralashmasdan)

tashlansa va yil davomida suv havzasiga kiradigan j-turdagi oqava suvlardagi i-qo'shimcha konsratsiyasi C<sub>ij</sub> (g/m<sup>3</sup>) qiymati nisbatan doimiy bo'lsa, u holda j-turdagi oqava suvlar bilan i-moddaning yillik tushish massasi m<sub>ij</sub> (t/yil) quyidagi formula bo'yicha taxminan aniqlanishi mumkin

$$m_{ij} = C_{ij} v_j \quad (9)$$

bu yerda, v<sub>j</sub> – mazkur manba tomonidan j-turdagi oqova suvlarni suv havzasiga yillik tashlash hajmi (mln. m<sup>3</sup>/yil).

Har bir ifloslantiruvchi modda uchun Ai kattaligining son qiymatini quyidagi formula bo'yicha aniqlash tavsiya etiladi:

$$A_i = (1(\Gamma/M^3)) / (\Pi \Delta K)_{(p/x)} (\Gamma/M^3) \quad (\text{УСЛ. Т}) / T \quad (10)$$

bu yerda

PDKp/xi - baliqchilik xo'jaligi maqsadlarida foydalaniladigan suv havzalari suvidagi i-moddaning ruxsat etilgan chegaraviy konsratsiyasi.

## 4-rasm. Atrof-muhit ifloslanishidan zararni hisoblash usullari<sup>18</sup>

<sup>18</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

Yel universiteti (YCEPL) tomonidan ishlab chiqilgan ekologik samaradorlik indeksi (EPI) mamlakatlarning ekologik samaradorligini qiyosiy baholashga qaratilgan bo'lib, ekologik boshqaruvning eng samarali strategiyalarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu ikki tizim maqsad va metodologiyadagi farqlarga qaramay, bir-birini to'ldiradi va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida asosli qarorlar qabul qilish uchun qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi;

tropik qishloq xo'jaligi xalqaro markazi (CIAT) qishloq xo'jaligi tizimlarining barqarorligi va atrof-muhitga ta'sirini baholash uchun turli xil vositalar va yondashuvlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish bilan shug'ullanadi;

O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilishning mavjud iqtisodiy mexanizmini yumshoq (ehtiyot qiluvchi) turga kiritish mumkin, u asosan tashkilotning byudjetdan tashqari resurslarini shakllantirishga, asosan ayrim tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini moliyalashtirishga, shuningdek tabiatni muhofaza qilish idoralari xodimlarini moddiy rag'batlantirishga yo'naltirilgan;

tabiatdan foydalanishning samarali iqtisodiy mexanizmi iqtisodiy rivojlanish va ekologik xavfsizlik o'rtasidagi muvozanatni yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak. U ekologik toza texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirishi, tabiiy resurslarning kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishini ta'minlashi, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilishning barqaror moliyaviy manbalarini shakllantirishi lozim. Shuningdek, mamlakatning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi mintaqaviy xususiyatlari va xalqaro majburiyatlarini hisobga olish muhimdir;

ma'muriy tumanlar kesimida ekologik vaziyat va yerlarni muhofaza qilish ekologik vaziyatli zonalarining ahamiyatini hisobga oluvchi "eng keskin" (III zona,  $1,6 \leq K_{zek} \leq 2,0$ ), "murakkab" (II zona,  $1,2 \leq K_{zmur} \leq 1,5$ ) va mo'tadil (I zona,  $0,1 \leq K_{zmo't} \leq 1,1$ ) koeffitsiyentlar bo'yicha tabaqalashtirishni qo'llash hududning ustuvorliklari va o'ziga xos xususiyatlariga qarab har bir ko'rsatkichning nisbiy ahamiyatini hisobga olish imkonini beradi.

AHP va ELECTRE kabi ko'p mezonli tahlil usullari mintaqalarning barqaror rivojlanishini baholashda moslashuvchan va tizimli yondashuvni ta'minlaydi. Ular iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlarni birlashtirish, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash va asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Ushbu usullar moslashuvchanligi tufayli turli mintaqalarning barqaror rivojlanish strategiyalarini qiyosiy tahlil qilish va samaradorligini baholashda muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin.

Muallifning fikricha, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish uchun ham qat'iy tartibga solish choralarini, ham ekologik toza texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantiruvchi bozor mexanizmlarini o'z ichiga olgan kompleks yondashuv zarur. Shuni ta'kidlash kerakki, hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning istiqbolli dasturlarini tuzishda atrof-muhit ifloslanishidan ko'rilgan zararni baholash va ekologik xavfsizlik talablarini hisobga olish kerak (4-rasmga qarang)

Dissertatsiyaning **"O'zbekiston Respublikasi mintaqalari iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va xususiyatlari"** deb nomlangan uchinchi bobida Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni agrar sektorining hozirgi holati va barqaror rivojlanishini cheklovchi omillar tadqiq etilgan, ekologik va ijtimoiy omillarning o'zaro aloqalari natijasida ijtimoiy xarajatlarni

shakllantirishning iqtisodiy shart-sharoitlari tahlil qilingan, atrof-muhit holatining o'zgarishi va mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishga baho berilgan.

Yerlarning ifloslanishidan ko'rilgan zararni iqtisodiy baholash muallif tomonidan ifloslangan yerlarni qayta tiklash va ushbu yerlarni avvalgi holatiga keltirish uchun jami xarajatlar bilan o'lchash taklif etiladi. Yerlarning ifloslanishidan ko'rilgan zararni hisoblash quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$Y = j * S * K_{sz} * K_{gz} * K_e * K_{ot} * K_{ik} + R_{ns} * M_o * K_e * K_m * K_o,$$

bu yerda: Y – yerlarning ifloslanishidan ko'rilgan zararni iqtisodiy baholash miqdori (so'm);

j – ifloslangan 1 ga yerni tiklash bo'yicha ishlarni to'liq hajmda olib borish uchun jami xarajatlar me'yor, uning son qiymati  $550 \times N_{y.e.}$  (so'm/ga) ga teng, bunda  $N_{y.e.}$  – muayyan vaqt davrida milliy valyutaning dollarga nisbatan o'rtacha kursining nisbiy ko'rsatkichi; S – ifloslangan yer maydoni (ga);  $K_{sz}$  – yerlarning ifloslanish darajasini hisobga oluvchi koeffitsiyent;  $K_{gz}$  – yerlarning ifloslanish chuqurligini hisobga oluvchi koeffitsiyent;  $K_e$  – ma'muriy tumanlardagi yerlarning ekologik holati va ekologik ahamiyatini hisobga oluvchi koeffitsiyent;  $K_{ot}$  – yerlarning tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya va tarixiy-madaniy maqsadlarini hisobga oluvchi koeffitsiyent;  $K_{ik}$  – tuproq sifatining o'zgarishini hisobga oluvchi koeffitsiyent;  $R_{ns}$  – yerlarni ruxsat etilmagan chiqindixonalar bilan ifloslantirganlik uchun to'lov miqdori;  $M_o$  – ruxsatsiz joylashtirilgan chiqindilar massasi (hajmi) (t, kub m);  $K_e$  – ma'muriy tumanlardagi yerlarning ekologik holati va ekologik ahamiyatini hisobga oluvchi koeffitsiyent;  $K_m$  – ruxsat etilmagan chiqindixona joylashgan joyni hisobga oluvchi koeffitsiyent;  $K_o$  – yerlarni ruxsat etilmagan chiqindixonalar chiqindilari bilan ifloslantirganlik uchun oshiruvchi koeffitsiyent 25 miqdorida belgilanadi, ruxsat etilmagan chiqindixonalar takroran hosil bo'lgan taqdirda esa 50 miqdorida qo'llaniladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish dasturi 2030-yilgacha bo'lgan eng yaqin maqsadlarni o'z ichiga oladi, u farovonlikni yaxshilash (kambag'allikni bartaraf etish choralari) va tabiatni muhofaza qilish, shuningdek,..."iqlim o'zgarishi va atrof-muhitni muhofaza qilish"ni hisobga olgan holda iqtisodiy o'sish, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va ish bilan ta'minlash sohasidagi bir qator masalalarni hal qilishga qaratilgan.<sup>19</sup> Maqsadlar BMTga a'zo barcha davlatlar, shu jumladan, O'zbekiston tomonidan ham ma'qullandi. Ular 17 ta maqsadni o'z ichiga oladi, konsepsiya global xarakterdagi tavsiyalar shaklida shakllantirilgan 169 ta aniq vazifadan iborat.

Barqaror rivojlanishning milliy strategiyasini amalga oshirish mintaqalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini talab qiladi. Chunki ularning iqtisodiy rivojlanish darajasi va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ustuvor yo'nalishlari o'rtasida shakllanadigan o'zaro bog'liqlik barqaror iqtisodiy rivojlanish muammolarini batafsil o'rganish va ularning yechimiga mahalliy darajada ustuvorlik berish zarurligini tasdiqlaydi.

---

<sup>19</sup> 2015-yilda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari

Bizning fikrimizcha, hozirgi vaqtda iqtisodiy nazariyada barqaror rivojlanish konsepsiyasining o'rnini inson faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini tavsiflovchi jarayonlarni o'rganish orqali belgilanmoqda. Barqaror rivojlanish nazariyasining shakllanishi jamiyat rivojlanishi muammolarining kelib chiqish manbalari, ularning oqibatlari, inson, jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqalarning rivojlanish yo'nalishlari va bosqichlarini tahlil qilish, shuningdek, ular orasidagi iqtisodiy munosabatlarni tizimlashtirish uchun asos yaratish zarurati bilan bog'liq.

Mintaqaviy rivojlanishning tabiiy-ekologik tarkibiy qismi hamda tabiiy resurslardan foydalanish hajmining tobora ortib borishi uning barqaror rivojlanishida ekologik-iqtisodiy jihatga ustuvorlik berish zarurligini belgilaydi.

Muallifning fikricha, O'zbekiston Respublikasi, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining barqaror rivojlanishini ta'minlash mintaqaning iqtisodiy rivojlanishini prognozlash jarayoniga ekologik va ijtimoiy omillarni integratsiyalashni talab etadi. Bu ekologik va ijtimoiy muammolarning salbiy oqibatlarini kamaytirish, aholining turmush sifatini oshirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy xarajatlarni kamaytirish va barqaror rivojlanish uchun muhim qadam bo'lgan iqtisodiy rejalashtirishda ekologik va ijtimoiy omillarni uyg'unlashtirish bo'yicha yondashuvlar va chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi.

Dissertatsiya ishida 2021-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston mintaqalari bo'yicha demografik ma'lumotlarning qiyosiy tahlili mamlakatning barcha hududlarida aholi sonining barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati aholisining umumiy aholi sonidagi ulushi deyarli o'zgarishsiz qolmoqda, mos ravishda 5,5% va 5,4% atrofida bo'lib, bu aholi o'sishining ushbu hududlar va mamlakatning qolgan qismi o'rtasida teng taqsimlanishini ko'rsatadi (2-jadvalga qarang).

O'zbekistonning turli mintaqalarida aholi jon boshiga umumiy daromadlar dinamikasi tahlili ijobiy va salbiy tendensiyalar mavjudligidan dalolat beradi.

Xorazm viloyatida barqaror o'sish sur'atlari mamlakatimizdagi o'rtacha ko'rsatkichlardan yuqori bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutni qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish talab etiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida mehnat resurslari ulushining barqarorligi mos ravishda 5,5% va 5,4% atrofida ekanligi ushbu hududlarda ish bilan bandlik tarkibining shakllanganligidan dalolat beradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida bandlik tarkibining tahlili ushbu hududlarda mehnat resurslari ulushining nisbatan barqarorligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, ishsizlik darajasini pasaytirishning ijobiy tendensiyasi kuzatilmoqda, bu esa iqtisodiy faollikning o'sishi va yangi ish o'rinlarining yaratilishini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy tendensiya shuni ko'rsatadiki, 10000 aholiga to'g'ri keladigan mutaxassislar soni 2021-yilda 25 nafardan 2022–2023-yillarda 29 nafarga oshgan. Qoraqalpog'iston Respublikasida bitiruvchilar ulushi mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan doimiy ravishda yuqori bo'lib, milliy daraja bilan taqqoxlaganda 113-116% ni tashkil etadi. Bu esa mintaqadagi ta'lim muassasalarining yuqori faolligi va mutaxassislarni yetkazib berish qobiliyatini ko'rsatadi.

**Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari dinamikasi<sup>20</sup>**

№	Nomi	2021		2022		2023	
		soni	ulush, %	soni	ulush, %	soni	ulush, %
1.	<b>Aholisi (ming kishi)</b>						
1.1	O'zbekiston Respublikasi	34558,9	100	35271,3	100	36024,9	100
1.2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1923,7	5,57%	1984,5	5,62%	1976,2	5,49%
1.3	Xorazm viloyati	1893,3	5,48%	1924,2	5,46%	1958,1	5,43%
2.	<b>Aholi jon boshiga yalpi daromad (ming so'm)</b>						
2.1	O'zbekiston Respublikasi	12122,2	100	14869,8	100	17807,3	100
2.2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	9436,6	77,85%	11286,5	75,89%	13253,4	74,42%
2.3	Xorazm viloyati	12270,6	101,23%	15756,4	106,00%	19643,5	110,29%
3	<b>Aholi jon boshiga o'rtacha oylik iste'mol xarajatlari (ming so'm)</b>						
3.1	O'zbekiston Respublikasi	780,8	100	939,1	100	1156,9	100
3.2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	652,9	83,62%	750,5	79,92%	919,4	79,47%
3.3	Xorazm viloyati	814,5	104,31%	857,2	91,31%	1345,2	116,26%
4.	<b>Mehnat resurslari soni (ming kishi)</b>						
4.1	O'zbekiston Respublikasi	19158,2	100	19334,9	100	19517,5	100
4.2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1074,7	5,61%	1066,1	5,51%	1067,6	5,47%
4.3	Xorazm viloyati	1044,8	5,45%	1047,1	5,42%	1050,9	5,38%
4	<b>Ishsizlik darajasi (yil oxirida %)</b>						
4.1	O'zbekiston Respublikasi	1561,0	100	1441,8	100	1332,7	100
4.2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	82,6	5,29%	78,9	5,47%	71,9	5,40%
4.3	Xorazm viloyati	88,1	5,64%	80,0	5,55%	73,7	5,53%

Biroq, Xorazm viloyatida bitiruvchilar ulushi mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan past bo'lib, 68-76% ni tashkil qiladi. Bu esa mintaqada mutaxassislar tayyorlash darajasini oshirish uchun mintaqada ta'lim infratuzilmasi va dasturlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida umumiy kasallanish holatlari 2021-yilda 19 368,0 ming holatdan 2023-yilda 21596,5 ming holatgacha oshgan bo'lib, bu kasalliklar sonining umumiy o'sishini ko'rsatadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida kasallanish holatlari 2021-yilda 786,0 mingdan 2022-yilda 959,0 minggacha oshgan, 2023-yilda esa 958,4 ming holatda barqaror saqlangan. Mintaqaning kasallanish ulushi mamlakat bo'yicha umumiy ko'rsatkichga nisbatan 2021-yilda 4,06% dan 2022-yilda 4,59% gacha ko'tarilgan, keyin esa 2023-yilda 4,44% gacha pasaygan. Xorazm viloyatida esa kasallanish holatlari 2021-yilda

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra muallif ishlanmasi.

1 028,6 mingdan 2023-yilda 1 172,0 minggacha oshgan. Viloyatning mamlakat bo'yicha umumiy kasallanishdagi ulushi 2021-yilda 5,31%, 2023-yilda 5,51% va 2023-yilda 5,43% ni tashkil etgan bo'lib, bu hududda barqaror va nisbatan yuqori darajadagi kasallanish mavjudligini ko'rsatadi.

**3-jadval**

**O'zbekiston Respublikasida Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi<sup>21</sup>**

T/r	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	2019	2020	2021	2022	2023	O'zgarish 2023-yilda 2019-yilga nisbatan (+),(-)
1	<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>						
1.1	Donli ekinlar	3,7	3,9	3,6	3,5	3,9	+0,2
1.2	Paxta xomashyosi	6,8	7,1	6,6	6,2	6,8	-
1.3	Sabzavotlar	2,6	2,7	2,7	2,8	2,8	+0,2
1.4	Poliz mahsulotlari	7,3	7,1	7,2	7,2	7,1	-0,2
1.5	Meva va rezavorlar	1,8	2,0	2,1	2,2	2,1	+0,3
1.6	Uzum	4,8	6,2	6,2	6,4	6,2	+1,4
1.7	Go'sht (tirik vaznda)	4,3	4,4	4,4	4,4	4,4	+0,1
1.8	Sut	3,6	3,6	3,7	3,7	3,7	+0,1
2	<b>Xorazm viloyati</b>						
2.1	Donli ekinlar	5,9	5,8	5,6	5,6	5,7	-0,2
2.2	Paxta xomashyosi	9,8	9,6	8,9	7,8	8,4	-1,4
2.3	Sabzavotlar	5,8	5,7	5,8	5,7	5,7	-0,1
2.4	Poliz mahsulotlari	6,7	6,7	6,7	6,7	6,7	-0,1
2.5	Meva va rezavorlar	5,5	5,5	5,3	5,4	5,4	-0,1
2.6	Uzum	2,5	2,7	2,8	2,7	2,7	+0,2
2.7	Go'sht (tirik vaznda)	6,5	6,4	6,5	6,3	6,4	-0,1
2.8	Sut	9,7	9,7	9,6	9,5	9,4	-0,3

Quyi Amudaryo mintaqasida suv resurslarining tanqisligi, tuproq sho'rlanishi va ekotizimlarning tanazzulini inobatga olib, ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirish va tabiiy resurslardan foydalanish masalalari ekologik cheklovlar hamda barqaror rivojlanish tamoyillarini hisobga olgan holda hal etilishi lozim. Quyi Amudaryo mintaqasida atrof-muhitga antropogen ta'sirning kuchayib borishi sharoitida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hududning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati) ekologik tanglik zonasida joylashgani sababli, bu yerda ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirish va tabiiy resurslardan foydalanish jarayonlari o'zaro chambarchas bog'liq va bir-birini asoslab beradi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini baholash, bir tomondan, mintaqaning raqobatbardosh ustunliklarini ta'minlash, qo'llab-quvvatlash va oshirish yo'nalishida faol harakat qilish imkonini bersa, boshqa tomondan, mavjud kuchsiz tomonlarni bartaraf etish yoki ularni kuchli jihatlariga aylantirish imkonini yaratadi. Mintaqa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqarorligi mavjud ishlab chiqarish omillaridan (hududlarning agroiqtisodiy salohiyatidan) samarali foydalanish sharoitida raqobatbardosh tovar va xizmatlar

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra muallif ishlanmasi.


bilan ta'minlanishida namoyon bo'ladi. Mintaqada sodir bo'layotgan tarkibiy o'zgarishlarga qaramay, qishloq xo'jaligi Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib qolmoqda (3-jadvalga qarang).

Sug'oriladigan ekin maydonlari hajmi bo'yicha Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoniga 2023-yilda respublika yerlarining 18,63% to'g'ri kelgan bo'lsa, ekin maydonlari bo'yicha 2019-yilga nisbatan deyarli o'zgarish kuzatilmadi (18,59%). Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining ulushi 2023-yilda mos ravishda 12,70% va 5,93% ni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkichlar 12,63% va 5,95% ni tashkil etgan. Ammo sug'oriladigan yerlarning unumdorligi bo'yicha Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni (Qoraqalpog'iston Respublikasi: Shumanay, Kegeyli, Chimboy va Xorazm viloyati: Qo'shko'pir, Shovot va Gurlan tumanlarida kuchli va o'rtacha sho'rlangan sug'oriladigan yerlar 50,0% dan ortiq) respublikamizda oxirgi o'rinni egallaydi, bu bir qator omillar bilan bog'liq.

Mintaqaviy qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini belgilab beradigan omillarni tahlil qilish muallifga ularni agrar sektorning raqobatli ustunliklari turini tavsiflovchi quyidagi yo'nalishlarga guruhlash imkonini berdi: raqobatchilarga qaraganda sifatliroq va arzonroq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish imkonini beradigan resursli yo'nalish; atrof-muhit va yer-suv resurslarining sifati (Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy, Ellikqal'a, To'rtko'l, Amudaryo va Xo'jayli tumanlarida tuproq unumdorligi va mahsuldorligi respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, yer osti suvlarining yuqori darajasi, masalan, Xorazm viloyatining Hazorasp tumanida), organik dehqonchilik texnologiyalarini joriy etish, xalqaro standartlarni joriy etish (ISO 9000-9001, HASSP- oziq-ovqat xavfsizligi) imkonini beradigan ekologik yo'nalish; subyektga o'z tasarrufidagi resurslardan foydalanishning yuqori samaradorligiga erishish va shu asosda o'z mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish, xarajatlar va narxlarni pasaytirish imkonini beradigan tashkiliy, ilmiy va texnologik omillar majmui sanalgan operatsion yo'nalish; ular asosida resurs bazasi, tarixiy-madaniy va iqtisodiy-tashkiliy xususiyatlarni optimal birlashtirish imkonini beradigan strategik qarorlar va rivojlanish dasturlari majmui sanalgan strategik yo'nalish; tashqi yo'nalish – bunda respublika va uning mintaqalari agrar sektori nafaqat resurs cheklovlari, balki koronavirus pandemiyasi (COVID-19) oqibatlari, jahon bozorlarining beqarorligi, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning o'sishi, yangi transport-logistika oqimlari va qo'shilgan qiymat zanjirlarining shakllanishi, eksport geografiasining o'zgarishi va boshqalar (FAO, JSST va JST) ta'sirida rivojlanishda davom etmoqda. Mintaqa agrar sektorining raqobatli ustunliklari tavsiflash omillarni atrof-muhit va yer-suv resurslari sifatini baholash imkonini beradigan resurs yo'nalishi (RY = 0,35), mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladigan tashkilotchilik, ilmiy va texnologik omillar majmuasini qamrab oladigan operatsion yo'nalish (OY = 0,42), resurs bazasi, ekologik hamda tashkilotchilik-iqtisodiy xususiyatlarni optimal uyg'unlashtirishga qaratilgan rivojlantirish dasturlarini o'z ichiga oladigan strategik yo'nalish (SY = 0,23) guruhlari o'rtasidagi maqbul nisbatni aniqlash lozimligi asoslandi.

Muallifning fikricha, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish nafaqat iqtisodiyotning real sektorida (qishloq xo‘jaligi va sanoat) suv tanqisligini kamaytiradi, balki aholining ichimlik suvi bilan ta‘minlanishini yaxshilaydi (urbanizatsiyaning o‘shishini hisobga olgan holda), suv xo‘jaligi infratuzilmasidan oqilona foydalaniladi, shuningdek, ekotizimga, ayniqsa, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni kabi zaif hududlarda yukni kamaytiradi. Bu, ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi mintaqalari uchun istiqbolda suv resurslari muvozanatini (Amudaryo va Sirdaryo oqimining qisqarishi, transchegaraviy muammolar, suv resurslarini taqsimlash, suvdan foydalanish samaradorligi va boshqalar) hisobga olgan holda ham, suv xo‘jaligi majmuasining samaradorligi uchun ham dolzarbdir.<sup>22</sup>

Amalga oshirilgan uzoq muddatli chora-tadbirlar natijasida 2023-yil holatiga ko‘ra, agrar sohada suv yo‘qotishlarini kamaytirish bo‘yicha natijalarga erishildi, bu esa suvdan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlarining o‘shishiga olib keldi (5-rasmga qarang).



**5-rasm. 2013-2023-yillarda O‘zbekiston viloyatlari kesimida dehqonchilikda suvdan foydalanish samaradorligining o‘zgarish dinamikasi<sup>23</sup>**

<sup>22</sup><https://www.gwp.org/globalassets/global/toolbox/publications/technical-briefs/04-taking-an-integrated-approach-to-improving-water-efficiency-2006-russian.pdf>, Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении концепции развития водного хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы» от 10.07.2020 г. № УП-6024. <https://lex.uz/ru/docs/4892946>, Постановление Президента Республики Узбекистан «Об утверждении стратегии управления водными ресурсами и развития сектора ирригации в Республике Узбекистан на 2021-2023 годы» от 24.02.2021 г. № ПП-5005. <https://lex.uz/docs/5307921>, Указ Президента Республики Узбекистан «Об определении приоритетных направлений внедрения и развития современной системы управления в водном хозяйстве» от 07.05.2024 г. № УП-74

<sup>23</sup>Электронная версия доклада доступна на сайте Евразийского банка развития: [https:// eabr.org/analytics/special-reports/](https://eabr.org/analytics/special-reports/) Новости евразийской интеграции, оперативная макро-аналитика, мониторинг инфраструктуры и другие экспертные мнения аналитиков еженедельно публикуются в телеграм-канале Евразийского банка развития: [t.me/eabr\\_bank](https://t.me/eabr_bank). © Евразийский банк развития, 2023 <http://cawater-info.net/>

**Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni agrar sektori rivojlanishini  
ekologik-iqtisodiy baholash<sup>24</sup>**

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2021				2023			
			O'zb. Resp.	Qoraqal. Resp.	Xorazm vil.	Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni	O'zb. Resp.	Qoraqal. Resp.	Xorazm vil.	Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni
1	<b>Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi:</b>									
1.1	Aholi jon boshiga	t/so'm	7310,4	54768,1	89735,0	7201,9	9683,3	72742,1	125566,2	7569,1
1.2	1 ga sug'oriladigan yer hisobiga		65670,0	22600,8	77429,2	40029,9	91157,4	30713,6	112264,8	56627,9
2	<b>Qishloq xo'jaligi yerlaridagi ulushi:</b>									
2.1	Sug'oriladigan yerlar	%	23,8	21,8	87,2	<b>27,8</b>	16,7	9,6	84,1	13,7
2.2	Sho'rlangan yerlar		16,9	9,8	84,3	13,9	8,6	7,6	98,8	88,8
3	<b>O'g'it solingan:</b>									
3.1	Minerallar	kg/ga	190,8	60,77	159,8	91,9	240,1	111,1	191,7	136,6
3.2	Organik		2784,5	2654,5	1894,9	2309,4	3608,1	2364,6	2940,6	2547,9
4	<b>Ish bilan bandlar soni:</b>									
4.1	Bandlar soni	t/kishi	3499,2	193,5	244,7	438,2	3429,6	183,0	238,8	421,8
4.2	Band bo'lgan 1 kishining qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi	so'm /kishi	74847,6	54569,9	69495,9	62903,8	105832,0	78546,4	102870,2	93541,5
4.3	1 nafar band aholiga sug'oriladigan yerlar	ga/kishi	1,05	2,41	0,89	1,56	1,08	2,56	0,92	1,36

Shunday qilib, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni agrar sektorini oqilona ekologik-iqtisodiy rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

suv xo'jaligi infratuzilmasi ishlarining samaradorligini oshirish (kollektor-drenaj tizimini modernizatsiya qilish, resurs tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, davlat-xususiy sheriklik, yerlar tanazzulining oldini olish va boshqalar) va zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish (sug'orilmaydigan zonalar uchun, Orol dengizining qurigan hududida yetishtiriladigan o'simliklar mahsuldorligini oshirish, tuproq sho'rlanishiga qarshi kurashish va boshqalar);

ilmiy asoslangan dehqonchilik tizimlarini, sug'orish tartiblarini joriy etish, tuproqning sho'rlanishi va ekologik holati (Soil Quality Index) bo'yicha kartografik materiallar yaratish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'zgargan sharoitlarini

<sup>24</sup> Muallif hisob-kitoblari

(diversifikatsiya, ekinlarning yangi navlarini joylashtirish va boshqalar) hisobga olgan holda yerlarni rayonlashtirishni qayta ko‘rib chiqish;

sug‘oriladigan yerlarning suv ta‘minotini oshirish maqsadida kollektor-drenaj suvlaridan takroran foydalanish, tuproq, agrokimyoviy, geobotanik tadqiqotlar (Orolbo‘yi yaylovlarining bioxilma-xilligini baholash va ularning iqlim o‘zgarishiga ta‘sirini o‘rganish), yerlarni xatlovdan o‘tkazish, yaylovlardan oqilona va samarali foydalanish tizimini takomillashtirish va boshqalar;

vazirliklar va mintaqaviy organlarning yer-suv resurslaridan foydalanish holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarini yagona elektron portal doirasida to‘plash va tahlil qilish asosida yagona monitoring mexanizmini yaratish.

Dissertatsiyaning **“Ekologik tanglik sharoitida mintaqqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish istiqbollari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida suv resurslarining cheklanganligi sharoitida mintaqqa qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish strategiyasi va prognozi ishlab chiqilgan, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni hududiy rivojlanishining differentsiatsiyasini kamaytirish mexanizmlari ularning asosiy ekologik-iqtisodiy xususiyatlarini aniqlash bilan asoslangan, boshqaruvni nomarkazlashtirish sharoitida qishloq hududlarini barqaror iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari asoslangan.

“O‘zbekiston-2030” taraqqiyot strategiyasida ko‘zda tutilgan kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha strategik maqsadlarni amalga oshirish maqsadida 2022-2023-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturlari 28 dan ortiq tashabbusni o‘z ichiga oladi. Ushbu chora-tadbirlar energetika va sanoat sohalarini karbonsizlantirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, bino va korxonalarining energiya samaradorligini oshirish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan. Iqlim o‘zgarishi muammosini hal qilishga kompleks yondashuv nafaqat issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga, balki atrof-muhit sifatini yaxshilashga, mamlakatning energiya xavfsizligini oshirishga va iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirishga imkon beradi.

Muallifning fikricha, O‘zbekistonda barqaror ekologik xavfsizlikni ta‘minlashning strategik ustuvorliklarini quyidagi yo‘nalishlarga ajratish mumkin:

“yashil iqtisodiyot” tamoyillarini qabul qilish va turli darajadagi davlat organlari va tabiiy resurslardan foydalanuvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini joriy etish. Bu boshqaruv qarorlarini ijtimoiy-iqtisodiy baholashda ekologik talablarni integratsiyalashni o‘z ichiga oladi;

ekologik, gigiyenik va sanitariya me‘yorlariga rioya qilish uchun butun mamlakat bo‘ylab atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish. Uchinchidan, suv, yer, foydali qazilmalar va biologik resurslar kabi tabiiy resurslardan oqilona va integratsiyalashgan holda foydalanishga e‘tibor qaratiladi, shu bilan birga muqobil va qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish qo‘llab-quvvatlanadi;

atrof-muhit monitoringi, prognozlashtirish va axborotni tarqatishning yagona tizimini takomillashtirish;

ekologik toza innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali Orol dengizi mintaqasi kabi ekologik xavfli hududlarni mahalliyashtirish, tiklash va ekologik holatini yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish (“mintaqaning iqtisodiy-ekologik tizimini innovatsion rivojlantirishni boshqarishni

takomillashtirishga tizimli va kompleks yondashuv zarur”); ekologik ta’lim, madaniyat va xabardorlikni, ayniqsa, yoshlar o’rtasida kuchaytirish; ekologik muammolarni hal qilish uchun xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikni mustahkamlash.

Shu munosabat bilan, ushbu ishda 2014-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha ushlab qolingani va zararsizlantirilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdorining dinamikasi tahlil qilingan (5-jadval).

### 5-jadval

#### Hosil bo‘lgan ifloslantiruvchi moddalarning umumiy miqdoridan ushlab qolingani va zararsizlantirilgan moddalar miqdori, %<sup>25</sup>

№	Mintaqalar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	O‘zbekiston Respublikasi	76,7	69,4	71,4	80,7	82,3	86,2	86,6	86,5	84,3	81,3
2	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	12,6	23,9	18,7	22,1	22,1	31,6	30,3	31,7	29,8	36,9
Viloyatlar											
3	Andijon	48,3	65,8	43,9	34,1	39,2	42,9	28,8	38,4	44,8	17,9
4	Buxoro	6,7	5,7	4,9	4,2	3,9	4,0	1,0	1,7	1,3	1,1
5	Jizzax	12,3	9,0	3,9	95,7	99,6	98,7	95,4	98,4	98,7	10,4
6	Qashqadaryo	19,3	18,3	22,7	24,1	21,5	15,4	16,8	48,8	16,6	16,8
7	Navoiy	95,0	95,4	94,8	93,8	93,8	92,9	93,6	93,4	90,4	92,3
8	Namangan	62,3	60,8	44,3	17,5	19,1	23,6	12,8	11,3	8,2	23,2
9	Samarqand	33,4	33,2	32,5	27,6	36,0	22,0	17,8	23,3	20,2	10,1
10	Surxondaryo	47,7	23,6	26,2	30,3	30,4	99,8	99,7	99,8	99,6	99,6
11	Sirdaryo	0,3	22,2	20,3	19,5	2,6	3,2	1,1	0,3	0,1	0,2
11	Toshkent	82,3	70,6	77,6	83,4	84,9	84,9	86,0	81,8	83,2	76,8
12	Farg‘ona	75,3	73,3	74,6	52,1	67,6	69,8	64,7	63,7	63,0	54,3
13	Xorazm	53,9	51,5	58,7	56,2	46,8	53,7	46,9	34,7	42,4	59,2
14	Toshkent shahri	21,1	20,2	18,5	18,7	12,5	27,2	6,2	4,8	6,7	7,0

Respublika miqyosida ushlab qolingani va zararsizlantirilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdorida sezilarli tebranishlar kuzatilmoqda. 2015-yilda bu ko‘rsatkich 2355,7 ming tonnani tashkil etib, keyinchalik 2021-yilda 5508,5 ming tonnagacha keskin oshgan va 2023-yilda 3655,6 ming tonnagacha pasaygan. Ushbu o‘zgarishlar tozalashning yangi texnologiyalarini joriy etish, sanoat faoliyatining o‘zgarishi va boshqa omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ushlab qolingani ifloslantiruvchi moddalar ulushi 2014-yildagi 12,6 foizdan 2023-yilda 36,9 foizgacha sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, 2017-2018-yillarda sezilarli o‘shish kuzatildi, bu tozalashning yangi usullarini joriy etish yoki ekologik nazoratni kuchaytirish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Xorazm viloyatida tebranishlar 2015-yilda eng yuqori 58,7% va 2023-yilda 59,2% gacha o‘shish bilan, Toshkent shahrida: 2014-yildagi 21,1% dan 2023-yilda 7,0% gacha asta-sekin pasayish, bu tozalash tizimidagi muammolarni ko‘rsatishi mumkin.

<sup>25</sup> O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra muallif ishlanmasi.

## 6-jadval

### Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarish (kg hisobida)<sup>26</sup>

t/r	Mahsulot	2019-yil			2023-yil		
		O‘zbekiston Respublikasi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Xorazm viloyati	O‘zbekiston Respublikasi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Xorazm viloyati
1	Don	198,3	130,3	206,2	224,1	157,1	235,7
2	Kartoshka	88,4	37,0	62,3	96,6	47,3	73,8
3	Sabzavotlar	296,2	133,6	305,8	313,1	161,4	325,6
4	Poliz mahsulotlari	55,7	70,8	66,1	67,9	87,5	81,7
5	Meva va rezavorlar	82,1	25,9	79,5	84,1	31,8	83,2
6	Uzum	48,2	4,0	20,9	49,4	5,7	25,0
7	Go‘sht (tirik vaznda)	73,7	55,6	84,8	76,5	61,2	88,8
8	Sut	327,6	200,0	542,1	326,2	219,6	560,7
9	Tuxum	226	162	247	228	196	244

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi kunda asosiy vazifa ekologik va iqlim muammolarini (Orol dengizi suv resurslarining tugashi agrar sektorning barqaror rivojlanishiga jiddiy tahdid tug‘dirdi) hisobga olgan holda 2030-yilgacha bo‘lgan davrda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga yo‘naltirilganligini qanday o‘zgartirish mumkinligi masalasini o‘rganishdan iborat<sup>27</sup>.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2023-yilda aholi jon boshiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarishning O‘zbekiston Respublikasiga nisbatan o‘sish tendensiyasi kuzatilib, don yetishtirish 70,1%, sabzavotlar 51,4%, go‘sht (tirik vaznda) 80,3%, sut 67,2% va tuxum 86,0% ni tashkil etdi (5-jadvalga qarang).

Bunda shuni ta‘kidlash joizki, agrar islohotlarning maqsadi tovar ishlab chiqaruvchilarning tashabbuskorligi va tadbirkorligiga tayanadigan raqobatbardosh qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini shakllantirish, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda mustaqil xo‘jalik yuritish va tovar ishlab chiqaruvchilarning kooperatsiyasi, xo‘jalik yuritishning turli shakllari asosida shakllanadigan institutsional tuzilmalar tizimini rivojlantirishdan iborat.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida 2023-2030-yillar oralig‘ida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmini uzoq muddatli prognozlashda SARIMAX (Seasonal AutoRegressive Integrated Moving Average with eXogenous factors) modelidan foydalanildi. SARIMAX modeli avtokorrelyatsiya (AR), integratsiya (I) va

<sup>26</sup> O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra muallif ishlanmasi.

<sup>27</sup> Yevropa va Markaziy Osiyoda oziq-ovqat xavfsizligi va oziq-ovqat holatining mintaqaviy sharhi - 2019. Qishloq xo‘jaligini yaxshilash yo‘lidagi tarkibiy o‘zgarishlar. Oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqat va atrof-muhit. Budapesht. FAO. 2019. Litsenziya: CC BY-NC-SA 3.0 IGO.

sirpanuvchi o‘rtacha (MA), shu jumladan mavsumiy tarkibiy qismlarni birlashtiradi, bu esa vaqt qonuniyatlari va mavsumiy o‘zgarishlarni hisobga olish imkonini beradi.

Ushbu tadqiqotda SARIMAX (1, 1, 1) x (2, 1, 1, 2), gp=1 model parametrlaridan foydalanildi: Avtokorrelyatsiyaning bitta lagi ishlatiladi. d=1 Qatorni statsionar qatorga aylantirish uchun u bir marta differensiallandi. q=1: Prognoz xatoligining bir lagidan foydalaniladi. P=2: Mavsumiy avtokorrelyatsion komponent uchun ikkita lag ishlatiladi. D=1: Mavsumiy farqlash bir marta qo‘llaniladi. Q=1: Mavsumiy sirpanuvchi o‘rtacha komponent uchun bitta lag ishlatiladi. s=2 Mavsumiy siklning uzunligi ikki davrni tashkil etadi.

Quyida Amudaryo iqtisodiy rayonida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmini uzoq muddatli prognoz qilish uchun 2023-yildan 2030-yilgacha SARIMAX (Seasonal Auto Regressive Integrated Moving Average with exogenous factors) modelidan foydalanildi. SARIMAX modeli avtokorrelyatsiya (AR), integratsiya (I) va sirpanuvchi o‘rtacha (MA) ni, shu jumladan mavsumiy komponentlarni birlashtiradi, bu esa vaqt qonuniyatlari va mavsumiy o‘zgarishlarni hisobga olish imkonini beradi.

SARIMAX (1, 1, 1) x (2, 1, 1, 2) model tenglamasini quyidagicha yozish mumkin:

$$y_t = \mu + \phi_1 y_{t-1} + \theta_1 \epsilon_{t-1} + \Phi_1 y_{t-2} + \Phi_2 y_{t-4} + \Theta_1 \epsilon_{t-2} + \Theta_2 \epsilon_{t-4} + \epsilon_t$$

bu yerda:  $y_t$  – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining joriy qiymati.  $\mu$  – qatorning o‘rtacha qiymati.  $\phi_1$  – lag 1 uchun avtokorrelyatsiya koeffitsiyenti.  $\theta_1$  – lag 1 uchun o‘rtacha sirpanish koeffitsiyenti.  $\epsilon_t$  – tasodifiy xato (oq shovqin).  $\Phi_1$  va  $\Phi_2$  - 2 va 4 laglar uchun mavsumiy avtokorrelyatsiya komponentining koeffitsiyentlari.  $\Theta_1$  va  $\Theta_2$  - 2 va 4 laglar uchun mavsumiy siljivchi o‘rtacha koeffitsiyentlar.

Ushbu tenglama qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining joriy qiymatining mavsumiy ta’sirlarni hisobga olgan holda qatorning oldingi qiymatlariga va prognoz xatoliklariga bog‘liqligini tavsiflaydi. Ushbu modeldan foydalanish qisqa va uzoq muddatli bog‘liqliklarni, shuningdek, mavsumiy o‘zgarishlarni hisobga olish imkonini beradi, bu esa prognozlashni yanada aniq va ishonchli qiladi. Ushbu tahlil natijalari Quyida Amudaryo iqtisodiy rayonida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi o‘sishini saqlab qolish va kuchaytirishga qaratilgan strategiya va harakat rejalarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Quyida Amudaryo tumani qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha tarixiy ma’lumotlar kompleks tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida SARIMAX (1, 1, 1) x (2, 1, 1, 2) ekonometrik modeli tuzilgan bo‘lib, ishlab chiqarish hajmini 2030-yilgacha bo‘lgan davrda prognoz qilish imkonini berdi.


I variant – qishloq xo‘jaligining rivojlanishi va tarmoq ixtisoslashuvining mavjud tendensiyalarini saqlab qolish (tadqiqot metodologiyasini hisobga olgan holda, ushbu ssenariy sezilarli cheklavlarga ega). Xorazm viloyatida paxta, viloyatning boshqa tumanlarida esa boshqoqli don ekinlari yetishtirishga ixtisoslashuvni saqlab qolish mo‘ljallanmoqda. Biroq, shu bilan birga, Qoraqalpog‘iston Respublikasida qishloq xo‘jaligi xodimlarini yetarli darajada rag‘batlantirish va motivatsiyalash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning cheklanganligi, suvni tejaydigan

texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmaganligi, eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarning sust rivojlanganligi va sug'oriladigan yerlarning nisbatan past mahsuldorligi bilan tavsiflanadigan mavjud tendensiyalar saqlanib qolmoqda.

II variant agrosanoat tarmoqlarining samarali va barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi, bunda tashqi va ichki bozorda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirishga e'tibor qaratiladi. Ishlab chiqaruvchilarning huquqlarini ta'minlash agrosanoat majmuasini rivojlantirishning agroklaster va kooperatsiya modellarini shakllantirishga qaratilgan tajriba-sinov loyihalarini (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida) aprobatsiyadan o'tkazishni nazarda tutadi. Bunga iqtisodiy manfaatdorlik va daromadlarni adolatli taqsimlash tamoyillarini joriy etish orqali erishiladi, bu esa sohaning investitsiyaviy va innovatsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Qishloq joylarda daromad manbalarini ko'paytirish va yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadida qishloq xo'jaligida xususiy sektorni rivojlantirish muhim yo'nalish hisoblanadi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda;

III variant iqlim o'zgarishi, Amudaryo oqimining qisqarishi, suv resurslarining transchegaraviy qayta taqsimlanishi, mintaqaning agrar sektorida suvdan nooqilona foydalanish, sanoat, kommunal-maishiy xizmatlar va aholi uchun suvga bo'lgan talabning o'sishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, Orolbo'yining ekologik muammolari, atrof-muhit sifati bilan bog'liq ijtimoiy xarajatlarning o'sishi va boshqalar bilan bog'liq suv resurslari taqchilligini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Ushbu ssenariyda suv ta'minoti omili mintaqa agrosanoat ishlab chiqarishining ishlab chiqarish kuchlarini yanada barqaror rivojlantirishning ustuvor shartlaridan biriga aylanadi (6-rasm).

Qishloq xo'jalik mahsulotlari tarixiy va prognozli hajmlari



6-rasm. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining 2030-yilgacha bo'lgan prognozi<sup>28</sup>

<sup>28</sup> Muallif hisob-kitoblari

Shunday qilib, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni qishloq xo'jaligi sohasining barqaror o'sishida sug'oriladigan va sug'orilmaydigan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish asosiy omil hisoblanadi. Ushbu o'sishni saqlab qolish va kuchaytirish uchun qishloq xo'jaligida yanada samarali boshqaruv usullari va texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa bo'lishi kerak.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanish darajasining pasayishi hududning o'z salohiyatidan samarali foydalana olishiga bog'liq. Ishda hududlarning tabaqalashuv darajasini pasaytirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat: tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish ixtisoslashuvini rivojlantirish, inson kapitaliga investitsiyalar, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va qulay institutsional muhitni yaratish (7-jadvalga qarang).

### 7-jadval.

#### Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni hududiy jihatdan rivojlanishining differentsiatsiyasi va ularning asosiy ekologik-iqtisodiy xususiyatlari (2023 y.)<sup>29</sup>


Xususiyatlar	Yuqori	O'rta	Past
Qoraqalpog'iston Respublikasi			
Sanoat	Taxiatosh, Mo'ynoq, Qorao'zak, Taxtako'pir	Qonliko'l, Qo'ng'iro't va Nukus	Amudaryo, Beruniy, Bo'zatov, Kegeyli, To'rtko'l, Xo'jayli, Chimboy, Shumanay va Ellikqal'a
Qishloq xo'jaligi	Amudaryo, Beruniy, Bo'zatov, Qorao'zak, Qonliko'l, Nukus, Taxiatosh, Chimboy, Shumanay, Ellikqal'a	Kegayli, To'rtko'l va Xo'jayli	Qo'ng'iro't, Mo'ynoq va Taxiatosh
Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish	Taxiatosh, Mo'ynoq, Taxtako'pir, Xo'jayli, Chimboy	Amudaryo, Beruniy, Ellikqal'a, Qo'ng'iro't, Nukus va To'rtko'l	Bo'zatov, Qorao'zak, Qonliko'l, Shumanay va Kegayli
Xorazm viloyati			
Sanoat	Tuproqqal'a, Yangibozor va Urganch	Xonqa, Shovot va Yangiariq	Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir, Hazorasp va Xiva
Qishloq xo'jaligi	Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir, Xiva, Yangiariq, Shovot, Xonqa, Urganch va Yangibozor	Tuproqqal'a	Xazarasp
Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish	Tuproqqal'a, Xonqa va Urganch	Bog'ot va Yangiariq	Yangibozor, Gurlan, Qo'shko'pir, Hazorasp va Xiva

Shunday qilib, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni qishloq xo'jaligi sohasining barqaror o'sishida sug'oriladigan va sug'orilmaydigan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish asosiy omil hisoblanadi. Ushbu o'sishni saqlab qolish va

<sup>29</sup> Muallif hisob-kitoblari

kuchaytirish uchun qishloq xo'jaligida yanada samarali boshqaruv usullari va texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa bo'lishi kerak.

Muallif tomonidan taklif etilgan tahlil usuli aholining ekologik ongi shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni tizimli tahlil qilish vositasidir. Ushbu omillar va ularning o'zaro aloqalarini ifodalash orqali ekologik mas'uliyatli xulq-atvorning asosiy determinantlarini aniqlash mumkin. Inson va tabiatning o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi ekologik-iqtisodiy ehtiyojlar bu jarayonda markaziy o'rin tutib, ekologik ongning yo'nalishi va intensivligini belgilab beradi. Ushbu yondashuvning ijtimoiy ahamiyati ekologik madaniyatni shakllantirish va barqaror rivojlanishga o'tishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatidan iborat.



**7-rasm. Ekologik-iqtisodiy ehtiyojlar va manfaatlarni shakllantirish jarayonida ijtimoiy va ekologik-iqtisodiy ziddiyatlarni tahlil qilish usuli<sup>30</sup>**

<sup>30</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanish darajasining pasayishi hududning o'z salohiyatidan samarali foydalana olishiga bog'liq. Ishda hududlarning tabaqalashuv darajasini pasaytirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat: tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish ixtisoslashuvini rivojlantirish, inson kapitaliga investitsiyalar, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va qulay institutsional muhitni yaratish (6-jadvalga qarang).

Ijtimoiy va ekologik-iqtisodiy omillarni o'rganish va ularning hududlarga, xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholi faoliyatiga ta'sirini baholash jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadigan optimal boshqaruv va xulq-atvor qarorlarini qabul qilish uchun katta ahamiyatga ega (7-rasmga qarang).

Ishda ko'rsatilganidek, xorijiy tadqiqotchilar institutlarni ma'lum bir hududiy tuzilma rivojlanishining barqarorligini belgilovchi omil sifatida ko'rib chiqadilar.

